TALABALARDA OTA-ONALIK USTANOVKALARI: IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MAZMUNI, TUZILISHI VA SHAKLLANISH DETERMINANTLARI (NAZARIY TAHLIL)

N.A.Kodirova[1]

1. Buxoro xalqaro universiteti, Buxoro, O'zbekiston UO'K 159.922.1:316.356.2

Mas'ul muallif: Kodirova Nilufar Abdusattor qizi, Buxoro xalqaro universiteti, Buxoro, O'zbekiston UO'K 159.922.1:316.356.2.

Received: 26 Oktabr 2026
Accepted: 31 Oktabr 2026
Published: 05 Noyabr 2026

Copyright: © 2026 by the author(s). Licensee Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi.

Iqtibos uchun: Kodirova, N. A. TALABALARDA OTA-ONALIK USTANOVKALARI: IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MAZMUNI, TUZILISHI VA SHAKLLANISH DETERMINANTLARI (NAZARIY TAHLIL) / N. A. Kodirova // Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi. — 2026. — T. 11, № 1. — B. 131–136.

Annotatsiya. Ota-onalik ustanovkasi farzand tug'ilishidan ancha oldin, talabalik davrida faol shakllanadi. Biroq bu tushuncha psixologik adabiyotda turlicha talqin qilinadi: u ba'zan tarbiya uslubi, ba'zan reproduktiv niyat, ba'zan esa bolaga emotsional munosabat bilan aynan bir deb qaraladi. Bu holat talabalar bilan ishlashda diagnostika va rivojlantirish vazifalarini aniq belgilashni qiyinlashtiradi. ustanovka va ota-onalik ustanovkasiga oid asosiy yondashuvlarni tahlil qilish asosida talabalarda ota-onalik ustanovkasining ijtimoiy-psixologik mazmuni, tuzilishi, funksiyalari va shakllanish determinantlarini nazariy jihatdan asoslash. Materiallar va metodlar. Ijtimoiy ustanovka nazariyalari, ota-onalik psixologiyasi va ota-onalik determinantlari bo'yicha klassik hamda zamonaviy manbalar nazariy-metodologik, qiyosiy-tahliliy, tizimli-tarkibiy tahlil va kontseptual modellashtirish metodlari asosida o'rganildi. **Natijalar.** Ota-onalik ustanovkasi talabaning kelajakdagi ota-onalik roliga, bolaga va tarbiyaviy vaziyatlarga nisbatan tayyorligini belgilovchi ijtimoiy-psixologik tuzilma sifatida aniqlashtirildi. Uning tarkibida motivatsion-aksiologik, kognitiv-refleksiv, emotsional-regulyativ va xulq-atvor komponentlari ajratildi. Ustanovka shakllanishining to'rt guruh determinanti - oilaviy-rolga oid, guruhiy-ijtimoiy, refleksiv-kommunikativ va emotsional-regulyativ - hamda konstruktiv ota-onalik ustanovkasining mezonlari asoslandi. **Xulosa.** Taklif etilgan nazariy model ota-onalik ustanovkasini talabaning shaxsiy xususiyati sifatida emas, balki oila, tengdoshlar guruhi va ta'lim muhiti ta'sirida rivojlanadigan dinamik tuzilma sifatida talqin qiladi. U talabalarni ota-onalikka tayyorlash bo'yicha diagnostik va rivojlantiruvchi ishlarni loyihalash uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy ustanovka, ota-onalik ustanovkasi, talabalar, ustanovka tuzilishi, ijtimoiy-psixologik determinantlar, konstruktiv ota-onalik.

РОДИТЕЛЬСКИЕ УСТАНОВКИ СТУДЕНТОВ: СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ, СТРУКТУРА И ДЕТЕРМИНАНТЫ ФОРМИРОВАНИЯ (ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ)

Аннотация. Родительская установка начинает активно формироваться задолго до рождения ребёнка, в студенческом возрасте. Однако в психологической литературе это понятие трактуется неоднозначно: его отождествляют то со стилем воспитания, то с репродуктивными намерениями, то с эмоциональным отношением к ребёнку. Из-за этого при работе со студентами трудно чётко определить задачи диагностики и развития. Цель - на основе анализа основных подходов к понятиям установки и родительской установки теоретически обосновать социально-психологическое содержание, структуру, функции и детерминанты формирования родительской установки у студентов. Материалы и методы. Классические и современные источники по теории социальной установки, психологии родительства и детерминантам родительства изучены с помощью теоретико-методологического, сравнительно-аналитического и системно-структурного анализа, а также концептуального моделирования. **Результаты.** Родительская установка определена как социально-психологическое образование, задающее готовность студента к будущей родительской роли, к ребёнку и к воспитательным ситуациям. В её структуре выделены мотивационно-аксиологический, когнитивно-рефлексивный, эмоционально-регулятивный и поведенческий компоненты. Обоснованы четыре группы детерминант её формирования (семейно-ролевые, группо-социальные, рефлексивно-коммуникативные и эмоционально-регулятивные), а также критерии конструктивной родительской установки. **Заключение.** Предложенная теоретическая модель рассматривает родительскую установку не как личностную черту студента, а как динамическое образование, развивающееся под влиянием семьи, группы сверстников и образовательной среды. Модель служит теоретической основой для проектирования диагностической и развивающей работы по подготовке студентов к родительству.

Ключевые слова: социальная установка, родительская установка, студенты, структура установки, социально-психологические детерминанты, конструктивное

родительство.

PARENTAL ATTITUDES OF UNIVERSITY STUDENTS: SOCIO-PSYCHOLOGICAL CONTENT, STRUCTURE AND DETERMINANTS OF FORMATION (A THEORETICAL ANALYSIS)

Abstract. Parental attitudes develop actively during the student years, long before a child is born. In the psychological literature, however, the concept is interpreted inconsistently. It is variously equated with parenting style, with reproductive intentions or with emotional attitude toward the child. This makes it difficult to define clear diagnostic and developmental goals when working with students. **Aim.** To provide a theoretical foundation for the socio-psychological content, structure, functions and determinants of students' parental attitudes, based on an analysis of the main approaches to attitudes and parental attitudes. **Materials and Methods.** Classical and contemporary sources on social attitude theory, the psychology of parenthood and the determinants of parenting were examined through theoretical-methodological, comparative-analytical and systemic-structural analysis and conceptual modelling. **Results.** The parental attitude was defined as a socio-psychological formation that shapes a student's readiness for the future parental role, for the child and for child-rearing situations. Four components were identified within it: motivational-axiological, cognitive-reflexive, emotional-regulatory and behavioural. Four groups of determinants of its formation were substantiated: family-role, group-social, reflexive-communicative and emotional-regulatory. Criteria for a constructive parental attitude were also substantiated. **Conclusion.** The proposed theoretical model treats the parental attitude not as a personal trait of the student but as a dynamic formation that develops under the influence of the family, the peer group and the educational environment. It provides a theoretical basis for designing diagnostic and developmental work to prepare students for parenthood.

Keywords: social attitude, parental attitude, university students, attitude structure, socio-psychological determinants, constructive parenting.

Kirish. Oila farzand shaxsining shakllanishidagi asosiy ijtimoiy institut bo‘lib, uning tarbiyaviy salohiyati ko‘p jihatdan ota-onalarning farzandga, tarbiyaga va o‘z ota-onalik roliga munosabati bilan belgilanadi. Bu munosabat farzand tug‘ilganda birdaniga paydo bo‘lmaydi. U yoshlik davrida, o‘z ota-onasining tarbiyaviy tajribasini anglash, tengdoshlar bilan muloqot va jamiyatdagi me’yorlarni o‘zlashtirish jarayonida shakllanadi [1; 2]. Shu sababli talabalik davri ota-onalik ustanovkasining shakllanishi uchun alohida ahamiyatga ega: bu davrda yoshlarning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari aniq rejalarga aylana boshlaydi, oliy ta’lim muhiti esa bu jarayonga maqsadli ta’sir ko‘rsatish imkonini beradi.

O‘zbekistonda oila institutini mustahkamlash va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan [3; 4]. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun ota-onalik ustanovkasi nima ekanligi, qanday tarkibiy qismlardan iborat ekani va qanday omillar ta’sirida shakllanishi haqida aniq nazariy tasavvur zarur. Aks holda ota-onalikka tayyorlash dasturlari bilim berish bilan cheklanib qoladi va ustanovkaning emotsional hamda xulqiy tomonlarini e’tibordan chetda qoldiradi.

Biroq psixologik adabiyotda «ota-onalik ustanovkasi» tushunchasi bir xil talqin qilinmaydi. Ayrim mualliflar uni ota-onaning bolaga emotsional munosabati sifatida [5; 6], boshqalari tarbiya uslubi va amaliyotlari bilan bog‘liq holda [7; 8], uchinchilari esa reproduktiv xulq va oila hajmiga munosabat sifatida [9] o‘rganadi. Ustanovka, tarbiya uslubi va real tarbiyaviy xulq o‘rtasidagi farq ko‘pincha aniq ajratilmaydi [8]. Bundan tashqari, mavjud ishlarning aksariyati farzandi bor ota-onalarga qaratilgan, hali farzandi bo‘lmagan talabalarda ota-onalik ustanovkasining shakllanish xususiyatlari esa nisbatan kam o‘rganilgan [1; 2].

Tadqiqot maqsadi - ustanovka va ota-onalik ustanovkasiga oid asosiy yondashuvlarni tahlil qilish asosida talabalarda ota-onalik ustanovkasining ijtimoiy-psixologik mazmuni, tuzilishi, funksiyalari va shakllanish determinantlarini nazariy jihatdan asoslash.

Tadqiqot vazifalari: 1) ustanovka tushunchasiga oid asosiy nazariy yondashuvlarni tahlil qilish va ularning ota-onalik ustanovkasini tushunish uchun ahamiyatini aniqlash; 2) ota-onalik ustanovkasining mazmuni, tarkibiy komponentlari va funksiyalarini aniqlashtirish; 3) talabalarda ota-onalik ustanovkasi shakllanishining ijtimoiy-psixologik determinantlari va konstruktiv ota-onalik ustanovkasining mezonlarini asoslash.

Materiallar va metodlar. Tadqiqot nazariy xarakterga ega bo‘lib, uning empirik bazasini ilmiy manbalar tashkil etdi. Tahlilga uch guruh manbalar jalb etildi: ijtimoiy ustanovka nazariyasiga oid klassik asarlar; ota-onalik psixologiyasi, ota-onalik munosabati va tarbiya uslublariga oid tadqiqotlar; talaba yoshlarning oilaviy va ota-onalikka oid tasavvurlari bo‘yicha zamonaviy empirik ishlar. Shuningdek, O‘zbekistonda oila va yoshlar siyosatiga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar ko‘rib chiqildi. Ma’lumotlar muallifning dissertatsiya tadqiqotining nazariy bobi doirasida tayyorlandi [10].

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo‘llanildi:

1. Nazariy-metodologik tahlil - ustanovka va ota-onalik ustanovkasi tushunchalarining turli psixologik maktablardagi talqinlarini aniqlash.

2. Qiyosiy-tahliliy metod - yondashuvlarni ustanovkaning anglanganlik darajasi, tuzilishi va shakllanish manbalari mezonlari bo‘yicha solishtirish.

3. Tizimli-tarkibiy tahlil - ota-onalik ustanovkasining tarkibiy komponentlari va ularning o‘zaro aloqalarini ajratish.

4. Kontseptual modellashtirish - ota-onalik ustanovkasining shakllanish determinantlari va mezonlarini yaxlit nazariy modelga birlashtirish.

Nazariy tahlil to‘rt bosqichda amalga oshirildi:

1) ustanovka tushunchasining mohiyatini ochib beruvchi asosiy yondashuvlarni ajratish;

2) ota-onalik ustanovkasining mazmuni va tuzilishiga oid qarashlarni umumlashtirish;
3) ota-onalik ustanovkasiga ta'sir etuvchi omillarni determinant guruhlariga birlashtirish;
4) konstruktiv va nokonstruktiv ota-onalik ustanovkalarini farqlash mezonlarini aniqlash.

Yondashuvlarni solishtirishda quyidagi mezonlarga tayanildi: ustanovkaning anglanganlik darajasi (anglanmagan tayyorlikdan ongli munosabatgacha); ustanovka tarkibidagi kognitiv, emotsional va xulqiy jihatlarning aks etishi; shakllanish manbalari (individual tajriba, oila, referent guruh, jamiyat); farzandi bo'lmagan yoshlarga tatbiq etish imkoniyati.

Natijalar.

Ustanovka tushunchasining ijtimoiy-psixologik mazmuni. Ustanovka tushunchasiga oid asosiy yondashuvlar va ularning ota-onalik ustanovkasini tushunish uchun ahamiyati 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval.

Ustanovka tushunchasiga oid asosiy yondashuvlar

Yondashuv, muallif	Ustanovkaning mohiyati	Ota-onalik ustanovkasini tushunish uchun ahamiyati
Ijtimoiy attityud (U. Tomas, F. Znanetskiy) [11]	Shaxsning ijtimoiy qadriyatlarga nisbatan holati, xulqni ichkaridan yo'naltiruvchi omil	Ota-onalikka munosabat jamiyatdagi qadriyatlar bilan bog'liq holda shakllanadi
Ustanovka nazariyasi (D. N. Uznadze) [12]	Ehtiyoj va vaziyat uchrashuvi natijasida yuzaga keladigan, ko'pincha anglanmaydigan yaxlit tayyorlik holati	Ota-onalik ustanovkasining bir qismi anglanmaydi va oilaviy tajribadan kelib chiqadi
Ruhiy va asab tayyorligi (G. Olport) [13]	Tajriba asosida tashkil topgan, obyektga javobga yo'naltiruvchi tayyorlik holati	Ustanovka shaxsiy tajriba, shu jumladan o'z ota-onasi bilan munosabat tajribasi asosida shakllanadi
Funksional yondashuv (D. Kats) [14]	Ustanovka moslashuv, bilish, qadriyatni ifodalash va o'zlikni himoya qilish funksiyalarini bajaradi	Ota-onalik ustanovkasining funksiyalarini ajratish imkonini beradi
Dispozitsion konsepsiya (V. A. Yadov) [15]	Ehtiyojlar va vaziyatlar darajasiga mos ierarxik tuzilgan dispozitsiyalar tizimi	Ota-onalik ustanovkasi qadriyatli yo'nalishlar va umumiy ijtimoiy ustanovkalar tizimiga kiradi
Rejalashtirilgan xulq nazariyasi (I. Ayzen) [16]	Xulqqa munosabat subyektiv me'yorlar va idrok etilgan nazorat bilan birga niyatni belgilaydi	Referent guruh me'yorlari va o'ziga ishonch talabaning ota-onalikka oid niyatlarini belgilaydi

Izoh. Jadval muallif tomonidan manbalar tahlili asosida tuzilgan.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, turli yondashuvlar ustanovkaning turli jihatlariga urg'u beradi. D. N. Uznadze maktabida ustanovka anglanmaydigan yaxlit tayyorlik holati sifatida qaraladi: u shaxsning idrok etish, baholash va harakat qilish jarayonlarini yashirin tarzda boshqaradi [12]. Ijtimoiy attityud an'anasida esa ustanovka ko'proq anglanadigan baholovchi munosabat sifatida talqin qilinadi va uning kognitiv, affektiv va konativ tarkibiy qismlari ajratiladi [13; 17]. V. A. Yadovning dispozitsion konsepsiyasi bu ikki qarashni birlashtirib, ustanovkalarni elementar tayyorliklardan qadriyatli yo'nalishlargacha bo'lgan ierarxik tizim sifatida ko'rsatadi [15].

Umumlashtirib aytganda, ustanovka mazmunida subyekt va obyekt, tashqi va ichki, individual va ijtimoiy jihatlar uyg'unlashadi. Ota-onalik ustanovkasini o'rganishda bu shuni anglatadiki, u faqat ongli fikr yoki faqat emotsional moyillik sifatida emas, balki anglanadigan va anglanmaydigan, individual va ijtimoiy darajalarni qamrab oluvchi tuzilma sifatida qaralishi kerak.

Ota-onalik ustanovkasining mazmuni, tuzilishi va funksiyalari. Ota-onalik ustanovkasining talqinlari bir necha yo'nalishda rivojlangan. E. Fefer va R. Bellning tadqiqotlarida ota-onalik munosabati tarbiyaga oid e'tiqod va baholashlar majmui sifatida o'lchanadi [5]. A. Ya. Varga va V. V. Stolin ota-onalik munosabatini bolaga nisbatan his-tuyg'ular, xulq stereotiplari, bola xarakteri va xulqini idrok etish va tushunish xususiyatlarining yaxlit tizimi sifatida ta'riflaydi [6]. R. Ronerning ota-onalik qabul qilishi va rad etishi nazariyasi bola uchun ota-onaning emotsional iliqligi yoki rad etishining universal ahamiyatini ko'rsatadi [18].

D. Baumrind ota-onalik nazoratining turlicha shakllarini ajratgan [7]. N. Darling va L. Steinberg esa tarbiya maqsadlari va qadriyatlari, tarbiya uslubi va tarbiyaviy amaliyotlarni farqlashni taklif qilgan [8]. Bu farqlash ushbu tadqiqot uchun muhim. Talabalarda real tarbiyaviy amaliyot hali yo'q, shuning uchun ularda tarbiya uslubi emas, balki uning asosini tashkil etuvchi ustanovka - kelajakdagi ota-onalik roliga, bolaga va tarbiyaviy vaziyatlarga nisbatan tayyorlik - o'rganilishi kerak.

Mahalliy va MDH psixologiyasida ota-onalik ustanovkasining tuzilishiga oid bir necha qarashlar mavjud. V. V. Boyko reproduktiv ustanovkani real va rejalashtirilgan reproduktiv harakatlarni ifodalovchi xulqiy, oila hajmi va farzandlar soniga munosabatni aks ettiruvchi emotsional-baholovchi hamda bilim va tasavvurlarga asoslangan kognitiv komponentlar birligi sifatida ko'rsatadi [9]. R. V. Ovcharova ota-onalikni ota-onalik qadriyatlari, ustanovka va kutishlar, his-tuyg'ular, ota-onalik pozitsiyasi va mas'uliyati, tarbiya uslubini o'z ichiga oluvchi yaxlit tuzilma sifatida tavsiflaydi [19]. A. S. Spivakovskaya ota-onalik ustanovkasini oila shakllantirgan «ideal hayot» haqidagi tasavvurlarning tarkibiy qismi sifatida qaraydi: har bir ota-ona o'z qadriyatlariga tayanib farzandning ideal obrazini yaratadi va uning rivojlanishini shu obraz asosida yo'naltiradi [20]. E. Bern ota-onalik ko'rsatmalari orqali shaxsning hayotiy ssenariysi shakllanishini ta'kidlaydi [21]. Bu esa ota-onalik ustanovkasining avlodlararo uzatilishini tushunish uchun muhim.

Ushbu qarashlarni umumlashtirish asosida talabalarda ota-onalik ustanovkasi quyidagicha ta'riflandi: ota-onalik ustanovkasi - talabaning kelajakdagi ota-onalik roliga nisbatan tasavvurlari, bolaga munosabati, oilaviy mas'uliyatni anglash darajasi, tarbiyaviy vaziyatlarda emotsional javob berish uslubi va xulq-atvor strategiyalarini belgilovchi ijtimoiy-psixologik tuzilma. Uning tarkibiy komponentlari 2-jadvalda keltirilgan.

2-
jadval.

Talabalarda ota-onalik ustanovkasining tarkibiy komponentlari

Komponent	Mazmuni	Namoyon bo'lish ko'rsatkichlari
Motivatsion-aksiologik	Ota-onalikka doir qadriyatlar, motivlar va mas'uliyatni anglash	Ota-onalikning shaxsiy qadriyatlar tizimidagi o'rni; farzand tarbiyasiga mas'uliyatni qabul qilish
Kognitiv-refleksiv	Ota-onalik, bola rivojlanishi va tarbiya haqidagi bilim va tasavvurlar; shaxsiy oilaviy tajribani tahlil qilish	Bola ehtiyojlari haqidagi tasavvurlarning aniqligi; o'z ota-onasining tarbiya tajribasiga tanqidiy munosabat
Emotsional-regulyativ	Ota-onalik vaziyatlariga hissiy munosabat va emotsiyalarni boshqarish	Bolani emotsional qabul qilish; tarbiyaviy nizoli vaziyatlarda o'z-o'zini nazorat qilish
Xulq-atvor	Egallangan qarashlarni amaliy harakat va munosabat strategiyalarida namoyon etishga tayyorlik	Hamkorlikka asoslangan strategiyalarni tanlash; nazorat va mustaqillik berish o'rtasidagi muvozanat

Izoh. Jadval muallif tomonidan [6; 9; 17; 19] manbalar tahlili asosida tuzilgan.

Komponentlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Motivatsion-aksiologik komponent ustanovkaning yo'nalishini belgilaydi. Kognitiv-refleksiv komponent bu yo'nalishni anglangan bilim va shaxsiy tajriba tahlili bilan to'ldiradi. Emotsional-regulyativ komponent esa bilim va qadriyatlarning real vaziyatlarda saqlanib qolishini ta'minlaydi. Emotsiyalarni boshqarish jarayonlari xulqning barqarorligi uchun alohida ahamiyatga ega [22]. Xulq-atvor komponenti avvalgi uch komponentning amaliy harakatga tayyorlik shaklida namoyon bo'lishidir.

D. Kats ustanovkaning funksiyalarini ajratgan [14]. Shunga tayangan holda ota-onalik ustanovkasining to'rt funksiyasi ajratildi:

Yo'naltiruvchi funksiya. Talabaning kelajakdagi oilaviy hayotga oid qarorlarini va ota-onalik roliga tayyorgarligini belgilaydi.

Baholovchi funksiya. Bola xulqini, tarbiya usullarini va o'z oilaviy tajribasini baholash mezonlarini beradi.

Regulyativ funksiya. Tarbiyaviy vaziyatlarda emotsional va xulqiy javoblarni tartibga soladi.

Ijtimoiy-identifikatsion funksiya. Talabaning o'zini kelajakdagi ota yoki ona sifatida anglashini va referent guruh me'yorlari bilan muvofiqlashuvini ta'minlaydi.

Ota-onalik ustanovkasi shakllanishining determinantlari va mezonlari. Ota-onalik determinantlari bo'yicha J. Belskiy modeli tarbiyaviy xulqni ota-onaning shaxsiy resurslari, bola xususiyatlari va kontekstual stress hamda qo'llab-quvvatlash manbalari bilan bog'laydi [23]. Talabalar hali farzand tarbiyalamaydi, shuning uchun bu modeldagi bola xususiyatlari bloki o'rniga ijtimoiy muhit va shaxsiy regulyatsiya omillariga ko'proq e'tibor qaratish lozim. A. Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasi ota-onalik namunalarining kuzatish va taqlid orqali o'zlashtirilishini tushuntiradi [24]. Gender rollari nazariyasi esa jamiyatdagi rollar taqsimoti haqidagi kutishlarning ustanovkalarga ta'sirini ochib beradi [25].

Ushbu nazariy asoslar va talaba yoshlarga oid empirik tadqiqotlar [1; 2; 26] tahlili asosida talabalarda ota-onalik ustanovkasi shakllanishining to'rt guruh determinanti ajratildi (3-jadval).

3-jadval.

Talabalarda ota-onalik ustanovkasi shakllanishining ijtimoiy-psixologik determinantlari

Determinantlar guruhi	Asosiy omillar	Ta'sir mexanizmi	Nazariy asos
Oilaviy-rolga oid	Ota-ona oilasidagi tarbiya tajribasi; oilaviy rollar taqsimoti haqidagi tasavvurlar; gender kutishlar	Ota-onalik vazifa va mas'uliyatlari haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantiradi	[21; 24; 25]
Guruhiy-ijtimoiy	Talabalar jamoasidagi kollektivizm, jipslik, muloqotchanlik, ochiqlik; referent guruh me'yorlari	Tasavvurlarni ijtimoiy me'yor va kutishlarga muvofiqlashtiradi	[16; 23]
Refleksiv-kommunikativ	O'z tajribasini tahlil qilish; muloqot va shaxslararo o'zaro ta'sir refleksiyasi	O'zlashtirilgan qarashlarni tanqidiy baholash va shaxsiy ota-onalik pozitsiyasiga aylantirish	[15; 19]
Emotsional-regulyativ	Emotsional holatlarda, faoliyatda va ijtimoiylashuvda o'z-o'zini nazorat qilish	Shakllangan pozitsiyani turli vaziyatlarda barqaror saqlash	[22; 23]

Izoh. Jadval muallif tomonidan tuzilgan.

Determinantlar alohida-alohida emas, balki bir-biri bilan bog'liq holda ta'sir ko'rsatadi. Oilaviy-rolga oid omillar ustanovkaning boshlang'ich mazmunini beradi. Guruhiy-ijtimoiy omillar bu mazmunni tengdoshlar va ta'lim muhiti me'yorlari bilan solishtirish imkonini yaratadi. Refleksiv-kommunikativ jarayonlar talabaga o'z oilasidan olingan

namunalarni tanqidiy qayta ko‘rib chiqishga yordam beradi. Emotsional-regulyativ xususiyatlar esa anglangan pozitsiyani amaliy vaziyatlarda saqlab qolishni ta’minlaydi. Ota-onalik ustanovkasi shakllanishiga oila mikromuhiti, talabalar jamoasining xususiyatlari, jamiyatdagi qadriyatlar tizimi, ta’lim muhiti va gender rollari ham ta’sir qiladi.

Shu asosda konstruktiv ota-onalik ustanovkasining mezonlari aniqlashtirildi. A. Ya. Varga va V. V. Stolin konsepsiyasi [6] va ota-onalik qabul qilishi nazariyasi [18] tayanch qilib olindi. Konstruktiv ota-onalik ustanovkasi besh mezon bilan tavsiflanadi:

– bolani qabul qilish va uning individualligini hurmat qilish;
– kooperativ munosabatga, ya’ni bola bilan hamkorlikka yo‘nalganlik;
– me’yoriy emotsional yaqinlik - bola mustaqilligini cheklamaydigan psixologik masofa;
– ortiqcha va avtoritar nazoratning yo‘qligi;
– bolaning omadsizliklariga nisbatan qo‘llab-quvvatlovchi munosabat.

Nokonstruktiv ustanovka esa bolani rad etish, ortiqcha simbiotik bog‘liqlik, avtoritar nazorat va bolaning imkoniyatlariga ishonchsizlik bilan tavsiflanadi.

Nazariy tahlil natijalari talabalarda ota-onalik ustanovkasi shakllanishining yaxlit modeliga birlashtirildi. Modelda besh element o‘zaro bog‘langan:

– ijtimoiy buyurtma - davlat va jamiyatning oilaga oid talablari;
– talabaning individual xususiyatlari - motivatsiya, ijtimoiy refleksiya, empatiya, shaxsiy qadriyatlar;
– ijtimoiy-psixologik muhit - referent guruh, ijtimoiy identifikatsiya, kommunikatsiya, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash;
– determinantlar va ustanovkaning tarkibiy komponentlari;
– ustanovkaning shakllanganlik darajalari.

Modelda ijtimoiy-psixologik muhit markaziy bog‘lovchi mexanizm vazifasini bajaradi: u talabaning individual xususiyatlarini jamiyat talablari bilan muvofiqlashtiradi [10].

Muhokama. O‘tkazilgan nazariy tahlil ota-onalik ustanovkasini talabaning shaxsiy xususiyati sifatida emas, balki ijtimoiy muhit ta’sirida rivojlanadigan dinamik tuzilma sifatida talqin qilish zarurligini ko‘rsatdi. Bu J. Belskiyning ota-onalik ko‘p omil bilan belgilanishi haqidagi qarashiga mos keladi [23]. Taklif etilgan yondashuv uni farzandi bo‘lmagan yoshlarga moslashtiradi: bola xususiyatlari o‘rnini talabalar jamoasi va ta’lim muhiti omillari egallaydi.

Ota-onalik ustanovkasini tarbiya uslubidan farqlash metodologik jihatdan muhim. N. Darling va L. Steinberg ko‘rsatganidek, tarbiya maqsadlari va qadriyatlari, uslubi va amaliyotlari turli darajadagi tushunchalardir [8]. Talabalar bilan ishlashda faqat ustanovka darajasini o‘rganish mumkin. Shuning uchun ota-onalar uchun yaratilgan tarbiya uslubi metodikalari talabalarga qo‘llanganda ular kelajakdagi tasavvur qilinayotgan munosabatni o‘lchashini hisobga olish kerak. Talabaning bugungi ustanovkasi kelajakdagi tarbiyaviy xulqni to‘g‘ridan-to‘g‘ri belgilamaydi. I. Ayzen nazariyasiga ko‘ra, niyat va xulq o‘rtasidagi bog‘liqlik subyektiv me’yorlar va idrok etilgan nazorat bilan vositalanadi [16].

Taklif etilgan to‘rt komponentli tuzilma klassik uch komponentli attityud modelini [17] va V. V. Boykoning reproduktiv ustanovka tuzilmasini [9] rivojlantiradi. Unda ikki yangi jihat bor. Birinchidan, kognitiv komponentga refleksiv jihat qo‘shilgan: talabaning o‘z oilaviy tajribasini tahlil qilishi ota-onalik namunalarining avlodlararo avtomatik uzatilishini [21; 24] anglangan tanlovga aylantirishi mumkin. Ikkinchidan, emotsional komponentga regulyativ jihat qo‘shilgan, chunki tarbiyaviy vaziyatlarda emotsiyani his qilish emas, uni boshqarish hal qiluvchi ahamiyatga ega [22].

O‘zbekiston sharoitida ota-onalik ustanovkasining shakllanishi o‘ziga xos ijtimoiy-madaniy kontekstda kechadi. Oilaviy qadriyatlar, avlodlararo munosabatlar va mahalla institutining yuqori ahamiyati yoshlarning oilaviy tasavvurlariga kuchli ta’sir ko‘rsatadi [3]. Shu bilan birga, oilada gender tengligi masalalari tobora keng muhokama qilinmoqda [27]. Shu sababli determinantlar orasida oilaviy-rolga oid omillar va gender kutishlar alohida ajratildi. Ota-onalikka tayyorlash dasturlari milliy qadriyatlarni saqlagan holda yoshlarda hamkorlikka asoslangan, bolaning mustaqilligini hurmat qiluvchi pozitsiyani shakllantirishga yo‘naltirilishi lozim.

Amaliy ahamiyati. Ota-onalik ustanovkasining tarkibiy komponentlari va determinantlari talabalar bilan ishlashda diagnostika va rivojlantirish vazifalarini aniq belgilash imkonini beradi. Diagnostika faqat bolaga munosabatni emas, balki oilaviy rollar haqidagi tasavvurlar, guruhdagi munosabatlar, refleksivlik va o‘z-o‘zini nazorat qilishni ham qamrab olishi kerak. Rivojlantiruvchi ishlar esa ma’lumot berish bilan cheklanmasligi lozim. Ular oilaviy tajribani qayta baholash, referent guruh ta’sirini tahlil qilish, emotsional regulyatsiya va refleksiv mashqlarni ham o‘z ichiga olishi kerak.

Tadqiqot cheklovlari. Ushbu maqola nazariy tahlil natijalarini taqdim etadi. Taklif etilgan tuzilma, determinantlar tizimi va mezonlar empirik tekshiruvni talab qiladi. Xususan, komponentlarning mustaqilligini omil tahlili orqali tasdiqlash, determinantlarning ta’sir kuchini baholash va modelning turli hududlar va ijtimoiy guruhlardagi talabalar uchun yaroqliligini tekshirish zarur. Bu vazifalar dissertatsiya tadqiqotining keyingi bosqichlarida hal qilinadi.

Xulosa.

1. Ustanovka anglanadigan va anglanmaydigan, individual va ijtimoiy darajalarni birlashtiruvchi tayyorlik holati sifatida ota-onalikka oid tasavvurlar, munosabatlar va xulqni tushunish uchun universal tushuncha bo‘lib xizmat qiladi.

2. Talabalarda ota-onalik ustanovkasi - kelajakdagi ota-onalik roliga nisbatan tasavvurlar, bolaga munosabat, oilaviy mas’uliyatni anglash, tarbiyaviy vaziyatlarda emotsional javob berish uslubi va xulq-atvor strategiyalarini belgilovchi ijtimoiy-psixologik tuzilma. U motivatsion-aksiologik, kognitiv-refleksiv, emotsional-regulyativ va xulq-atvor komponentlaridan iborat bo‘lib, yo‘naltiruvchi, baholovchi, regulyativ va ijtimoiy-identifikatsion funksiyalarni bajaradi.

3. Ota-onalik ustanovkasining shakllanishi o‘zaro bog‘liq to‘rt guruh determinant bilan belgilanadi: oilaviy-rolga oid, guruhiy-ijtimoiy, refleksiv-kommunikativ va emotsional-regulyativ. Konstruktiv ota-onalik ustanovkasi bolani qabul qilish,

hamkorlikka yo‘nalganlik, me’yoriy emotsional yaqinlik, ortiqcha nazoratning yo‘qligi va bolaning omadsizliklariga qo‘llab-quvvatlovchi munosabat bilan tavsiflanadi.

4. Taklif etilgan nazariy model talabalarni ota-onalikka tayyorlash bo‘yicha diagnostik vositalar va rivojlantiruvchi dasturlarni loyihalash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi va empirik tekshiruvni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] Дунай В. И., Аринчина Н. Г., Сидоренко В. Н. Родительские установки современных студентов // Репродуктивное здоровье. Восточная Европа. - 2012. - № 2 (20). - С. 126–133.

[2] Вяльшина А. А. Отношение студентов к детям и родительству: гендерные и сельско-городские сопоставления // Народонаселение. - 2024. - Т. 27, № S1. - С. 132–146. - DOI: 10.24412/1561-7785-2024-S1-132-146.

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi PQ-3808-son «O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarori.

[4] Solikhujaeva D. Preparing young people for family life based on national values and its legal basis // Society and Innovations. - 2023. - Vol. 4, Special Issue 11. - P. 224–233. - DOI: 10.47689/2181-1415-vol4-iss11/S-pp224-233.

[5] Schaefer E. S., Bell R. Q. Development of a parental attitude research instrument // Child Development. - 1958. - Vol. 29, No. 3. - P. 339–361.

[6] Варга А. Я., Столин В. В. Тест-опросник родительского отношения // Практикум по психодиагностике. Психодиагностические материалы. - М. : Изд-во МГУ, 1988. - С. 107–113.

[7] Baumrind D. Effects of authoritative parental control on child behavior // Child Development. - 1966. - Vol. 37, No. 4. - P. 887–907.

[8] Darling N., Steinberg L. Parenting style as context: an integrative model // Psychological Bulletin. - 1993. - Vol. 113, No. 3. - P. 487–496. - DOI: 10.1037/0033-2909.113.3.487.

[9] Бойко В. В. Рождаемость: социально-психологические аспекты. - М. : Мысль, 1985.

[10] Kodirova N. A. Talabalarda ota-onalik ustanovkalari shakllanishining ijtimoiy-psixologik determinantlari : psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Buxoro : Buxoro xalqaro universiteti, 2026.

[11] Thomas W. I., Znaniecki F. The Polish Peasant in Europe and America. - Vol. 1–5. - Boston : Badger, 1918–1920.

[12] Узнадзе Д. Н. Экспериментальные основы психологии установки. - Тбилиси : Изд-во АН ГССР, 1961.

[13] Allport G. W. Attitudes // A Handbook of Social Psychology / ed. by C. Murchison. - Worcester, MA : Clark University Press, 1935. - P. 798–844.

[14] Katz D. The functional approach to the study of attitudes // Public Opinion Quarterly. - 1960. - Vol. 24, No. 2. - P. 163–204. - DOI: 10.1086/266945.

[15] Ядов В. А. О диспозиционной регуляции социального поведения личности // Методологические проблемы социальной психологии. - М. : Наука, 1975. - С. 89–105.

[16] Ajzen I. The theory of planned behavior // Organizational Behavior and Human Decision Processes. - 1991. - Vol. 50, No. 2. - P. 179–211. - DOI: 10.1016/0749-5978(91)90020-T.

[17] Eagly A. H., Chaiken S. The Psychology of Attitudes. - Fort Worth, TX : Harcourt Brace Jovanovich, 1993.

[18] Rohner R. P., Khaleque A., Cournoyer D. E. Parental acceptance-rejection: theory, methods, cross-cultural evidence, and implications // Ethos. - 2005. - Vol. 33, No. 3. - P. 299–334. - DOI: 10.1525/eth.2005.33.3.299.

[19] Овчарова Р. В. Психологическое сопровождение родительства. - М. : Изд-во Института психотерапии, 2003.

[20] Спиваковская А. С. Как быть родителями: о психологии родительской любви. - М. : Педагогика, 1986.

[21] Berne E. What Do You Say After You Say Hello? - New York : Grove Press, 1972.

[22] Gross J. J. The emerging field of emotion regulation: an integrative review // Review of General Psychology. - 1998. - Vol. 2, No. 3. - P. 271–299. - DOI: 10.1037/1089-2680.2.3.271.

[23] Belsky J. The determinants of parenting: a process model // Child Development. - 1984. - Vol. 55, No. 1. - P. 83–96. - DOI: 10.1111/j.1467-8624.1984.tb00275.x.

[24] Bandura A. Social Learning Theory. - Englewood Cliffs, NJ : Prentice Hall, 1977.

[25] Eagly A. H., Wood W. Social role theory // Handbook of Theories of Social Psychology / ed. by P. A. M. Van Lange, A. W. Kruglanski, E. T. Higgins. - London : Sage, 2012. - Vol. 2. - P. 458–476.

[26] Юнель С. А. Идеальный образ будущей семьи у юношей и девушек студенческого возраста // Мир науки. Педагогика и психология. - 2023. - Т. 11, № 6. - URL: https://mir-nauki.com/PDF/86PSMN623.pdf.

[27] Eshonkulova G. Socio-psychological factors of ensuring gender equality relations in Uzbek families // Society and Innovations. - 2022. - Vol. 3, No. 4. - P. 220–225. - DOI: 10.47689/2181-1415-vol3-iss4-pp220-225.